

POSTSOVET HUDUDIDA ISLOM MOLIVASINING SEKULYAR TIZIMGA
INTEGRATSIYASI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR

Hatamov Pirmuhammad Shuhratjon o'g'li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti
2-bosqich talabasi*

pirmuhammadhatamov@gmail.com

Isayeva Guliza Soyibjon qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti
1-bosqich talabasi*

isayevaguliza@gmail.com

Ilmiy maslahatchi: Nigora Azimova Sabitovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada postsovet davlatlarida islomiy moliyani joriy etish masalasi ko'rib chiqiladi. Asosiy maqsad - mavjud sekulyar moliyaviy tizim sharoitida islomiy moliya qanchalik moslasha olishini aniqlash hamda bu jarayonning umumiy muammolarini belgilash. Ushbu masalaning dolzarbligi shundaki, mintaqada islomiy moliya vositalariga talab oshib borayotgan ekan, ularni amaliyotga kiritishning institutsional asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar asosan alohida davlatlar tajribasiga qaratilgan bo'lib, postsovet hududining o'ziga xos tarixiy va huquqiy sharoitlari hamda KOBlar faoliyatiga ta'siri yetarlicha baholanmagan. Bu maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan umumiy nazariy tahlilni taklif etadi.*

Kalit so'zlar: *islom moliyasi, postsovet davlatlari, sekulyar tizim, mushoraka, mudaraba, murobaha, sukuk, salam, fiqh al-muamalat.*

Abstract: *This article examines the introduction of Islamic finance in the postsoviet states. The main objective is to determine the extent to which the Islamic financial system can adapt to the existing secular financial model, as well as to identify the key challenges associated with this process. The issue is highly relevant, since although the demand for Islamic financial instruments in the region is increasing, the institutional mechanisms required for their practical implementation remain underdeveloped. Previous studies have predominantly focused on the experience of individual countries, while the historical and legal specificities of the postsoviet context and their implications for small and medium-sized enterprises have not been sufficiently assessed. This article offers a general theoretical analysis aimed at filling this research gap.*

Keywords: *islamic finance, post-Soviet countries, secular system, musharaka, mudaraba, murabaha, sukuk, salaam, fiqh al-muamalat.*

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос внедрения исламских финансов в постсоветских государствах. Основная цель заключается в определении того, насколько исламская финансовая система способна адаптироваться в условиях существующей секулярной модели, а также в обозначении ключевых проблем этого процесса. Актуальность темы обусловлена тем, что несмотря на растущий спрос на инструменты исламских финансов в регионе, институциональные механизмы их практического внедрения пока недостаточно разработаны. Предыдущие исследования преимущественно были сосредоточены на опыте отдельных стран, в то время как исторические и правовые особенности постсоветского пространства, а также их влияние на деятельность малого и среднего бизнеса, остаются изученными лишь частично. Настоящая статья предлагает общий теоретический анализ, направленный на заполнение данного исследовательского пробела.

Ключевые слова: исламские финансирование, постсоветские государства, светская система, мушарака, мудараба, мурабаха, сукук, салам, фикх аль-муамалат.

Postsovet hududida shakllangan iqtisodiy tizimning asosida sekulyar model turadi. Unga ko'ra, huquqiy tartibot diniy me'yorlardan ajratilgan holda davlatning iqtisodiy rivojlanishi foizga asoslangan bank tizimi orqali tasavvur qilinadi. Lekin bu jamiyatda diniy qadriyatlar-u halollik tamoyillari unutilganligini anglatmaydi. Boylik orttirishga faqat shaxsiy manfaat emas, ijtimoiy mas'uliyat vositasi sifatida qaraydigan qatlamlar hali ham mavjud. Shu sababli iqtisodiyot va jamiyat o'rtasida noaniqlik yuzaga kelib qoladi. Mavjud bank tizimi iqtisodiy ehtiyojlarni qondirsa ham ma'naviy qoniqishni to'liq ta'minlab berolmaydi. Bitta misol sifatida 38 million aholiga ega O'zbekistonda savdo sanoat palatasining BMTTD so'rovnomasiga ko'ra jami aholining 68%i, biznes vakillarining esa 60%i diniy e'tiqodi sababli an'anaviy bank xizmatidan foydalanishni xohlamaydi.[1] Mana shu yetishmayotgan taklif uchun islom moliyasi mukammal yechim bo'la oladi. Chunki u iqtisodiy faoliyatni faqat foyda olish uchun qandaydir mexanizm emas, balki axloqiy javobgarlik asosida shakllantirishni taklif qiladi.

Islom va moliya birlashsa, islom huquqida qonun-qoidalarni o'rganuvchi fan - fiqh sanalib, moliyaviy masalalarga javob beruvchi qonunlar yig'indisi - fiqh al-muamalat deb ataladi. Moliyaviy muamalat insonlar o'rtasidagi moliyaviy aloqalarni, bir-birlari bilan savdo-sotiq, pul bilan bog'liq oldi-berdi munosabatlarini qamrab oladi va 2 guruhga bo'linadi: tijoriy muomala hamda notijoriy muomala. Tijoriy muomalaning asosiylariga: murobaha (مُرَابَاة) - aktivlar oldi-sotdisi; ijara (الِإِعْجَارَة); istisna (اِسْتِصْنَاع) - loyihaga pul tikish; salam (بِيعِ السَّلْم) - qishloq xo'jaligini moliyalashtirish; mushoraka (مِشَارَكَة) - sherikchilik; mudoraba (مِضَارَبَة) - pul va qobiliyat egalari o'rtasida shartnoma tuzish; sukuk (صُكُوك) - investitsiyalar kiradi. Notijoriy instrumentlarga esa: zakot (زَكَاة) - har yilda 1 marta boylarning 2,5 foizgacha bo'lgan boyligi to'g'ridan-to'g'ri kambag'allarga beriladi; qarz

ul hasan (قرضالحسن) - ma'lum muddatga kafolatlangan foizsiz qarz; vaqf (وَقْف) - makroiqtisodiy ijtimoiy muammolarni hal qiladi; takoful (التكافل) - sug'urta kiradi.[2]

Islom moliyasining markaziy mohiyati ribo, ya'ni o'suvchi foizning ta'qiqida mujassamlashgan. Foizdan voz kechish esa o'z navbatida moliyalashtirish jarayonini real aktivlar bilan bog'lashni talab qiladi, foydaning manbai haqiqiy iqtisodiy operatsiyalarga aylanadi. Natijada moliya sektori puldan pul ishlab topish emas, balki iqtisodiy faoliyatga sheriklik qilish, foyda va zararlarni baham ko'rish orqali ishlaydi. Islom banki bir tomondan investorlar va omonatchilar pullarining ishonchli vakili bo'lsa, ikkinchi tomondan sotuvchi, lizing beruvchi, biznes hamkori yoki investor hamdir. Masalan, mushoraka va mudoraba kabi mexanizmlar tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir taraf biznes uchun sarmoya beradi, natija foyda yoki zararga ishlashidan qat'iy nazar o'rtada bo'linadi. Murobaha va ijara kabilar esa aktivlarni moliyalashtirishga xizmat qiladi. Pul emas, kelishilgan ustama narxi bilan tovar sotiladi. Ustamani esa bo'lib to'lash orqali bankka qaytarish mumkin, foiz bilan emas. Zakot, vaqf va takoful esa moliyaning ijtimoiy jihatini kuchaytirib, iqtisodiy taraqqiyot bilan birga ijtimoiy adolatni ta'minlashga harakat qiladi. Bir misol sifatida takoful ya'ni islomiy sug'urtalashning an'anaviy sug'urtalashdan muhim farqi va afzalliklarini ko'rsatish mumkin. Takoful ishtirokchilari bir vaqtning o'zida sug'urta qildiruvchi va bir-birlarini o'zaro sug'urtalovchilar bo'la olishadi. Sug'urta kompaniyasi ishtirokchilar manfaatini ko'zlab, faqat agent sifatida faoliyat yuritadi va sug'urta jamg'armasining egasi bo'la olmaydi. Jamg'arma ishtirokchilarining investitsion qo'yilmalarga kiritgan mablag'laridan kelgan barcha foyda an'anaviy sug'urtalashda bo'lgani kabi sug'urta kompaniyasining mulki hisoblanmaydi, balki muzorib(sug'urta operatori)ning xizmat haqi chiqarib tashlangach, ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi.[3] Bundan tashqari, ushbu moliyaviy tizimda yana bir muhim jihat bor: hech kim osonlikcha pul topmaydi, ya'ni maysir(qimor o'yinlari) va lotereyalarga o'xshab pulni tasodifan, omad va qandaydir imkoniyatga ishonib yutib olish mumkin emas. Chunki kimdir zarar ko'rib, aziyat chekishi hisobiga boshqa birov katta daromad tagida qolishi mumkin emas. Undan tashqari, jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan butun jamiyat uyoqda tursin, hatto biror shaxs uchun zararli har qanday faoliyatni moliyalashtirish yoki shug'ullanish qat'iy taqiqlanadi. Misol uchun, insonlar sog'lig'i uchun zararli bo'lgan tamaki va alkogol sanoati mahsulotlari hech qachon moliyalashtirilmaydi, garchi bu sohada katta miqdordagi foyda yotsa ham. Shunday qilib, islom moliyasi iqtisodiy faoliyatni axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirgan, real sektorga suyanadigan, riskni adolatli taqsimlaydigan model sifatida shakllanadi.

Amalda bularning barchasi qanday ishlashini turli davlatlar tajribasida ko'rish mumkin. Malayziyada islom moliyasi an'anaviy bank tizimi bilan parallel ravishda ishlaydi. Davlat shariat kengashi orqali normativ qonunlarni kafolatlagan, sukuk bozori xalqaro sarmoyani jalb qilgan ya'ni islomiy obligatsiyalar orqali boshqa davlatlar va investorlar loyihalarga pul kiritgan, iqtisodiyotga tashqi kapital kirgan. Indoneziyada keng ommaning talabiga tayangan holda mikrofinans, ijtimoiy moliya va tafokul mexanizmlari rivojlanib,

kambag'allikni qisqartirishda ahamiyat qozongan. Turkiyada "katılım bankaları" tajribasi orqali ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarini moliyalashtirishda foizsiz modellarning amaliy samarasini namoyon qilgan. Qozog'iston esa islomiy moliyaga yo'l ochadigan qonunlarni AIFC(Astana International Financial Centre) orqali chetdan olib keldi, sukukni chiqarib ko'rdi, lekin odamlar va investorlar hali ko'p xarid qilmadi. Demak, tizim ishlashi uchun faqat qonun yetmaydi. Moslashuv uchun keyingi bosqichlar sifatida talab va mentalitet ham muhim. Odamlar tushunishi, ishonishi, foydalanishni o'rganishi kerak. Ozarbayjonda islomiy moliya investitsiya bozori sifatida ko'rilmogda. Xususan, Eron va Turkiya investitsiyalari orqali halol sektorlar kengaymogda, lekin bank modeli hali shakllanmagan. Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi faqat diniy talabning mahsuli emas, balki investitsiya jalb qilish, iqtisodiy diversifikatsiya, real sektorni moliyalashtirish va xalqaro sarmoyadorlar uchun ishonchli maydon yaratish vositasi. Shu jihatdan qaralsa, O'zbekistondagi aholining tadbirkorlik potentsiali, sheriklikka asoslangan moliyalashtirishga ehtiyoj, halol ishlab chiqarish va eksport bozorlariga chiqish istagi uchun islom moliyasi ayni muddao.

Biroq moslashuv jarayonida qarama-qarshiliklar ham tabiiy. Huquqiy tizim hali moslashtirilmagan, islomiy shartnomalar sinfi qonunda belgilab olinmagan, Markaziy Bank regulyatsiyasi Basel standartlarga suyanadi, moliyaviy savodxonlik yetarlicha keng emas. Masalan, eng oddiylaridan biri - ko'pchilik murobaha mexanizmi ham kreditga o'xshatadi. Ammo aslida, bu mexanizmga ko'ra islom banki mijozining so'roviga qarab mahsulotni sotib oladi va uni belgilangan ustama bilan o'sha so'ragan mijozga bo'lib sotadi. Mahsulot sotib olingan paytdan to mijozga sotilgunigacha, u bilan bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday xavfni bankning o'zi zimmasiga oladi. Bundan tashqari, ikkala tomon sotib olingan mahsulotni moliyalashtirish miqdorini aniq belgilab olishadi va ikkala tomon ham aniq miqdordan aldin xabardor bo'ladi, ya'ni o'rtada hech qanday noaniqlik qolib ketmaydi. Mijoz tomonidan to'lov kechiktiriladigan bo'lsa, islom banki hech qachon penya orqali o'ziga daromad undirib olmaydi. Murobaha mexanizmi shu tarzda ishlaydi. Odamlardagi tasavvur to'g'ri shaklda paydo bo'lishi uchun ham sekulyar modelga asoslangan me'yorlar bilan islomiy moliyadagi terminlar va ularning axloqiy mazmun-mohiyati o'rtasida madaniy-siyosiy moslashuv zarur. Asosiy farqi shundaki, hozirgi tizim pulning qiymatini vaqt omili orqali baholaydi(o'suvchi foiz), islom moliyasi esa qiymatni real aktivlardan kelib chiqib belgilaydi. Shuning uchun ham bu ikki yondashuvning birlashishi uchun avtomatik emas, bosqichma-bosqich integratsiya qilinishi talab etiladi. Agar islom moliyasi parallel model sifatida joriy etilsa, shariat kengashi normativ moslashuvni ta'minlasa, sukuk emissiyasi orqali xalqaro sarmoya jalb qilinsa, mushoraka va mudoraba fondlari KOBlarni moliyalasa, takoful orqali ijtimoiy barqarorlik kuchaysa, iqtisodiy tizim diversifikatsiyalanishi, real sektor moliyalashtirilishi, xalqaro ishonchli kapital oshishi va jamiyatning ma'naviy ehtiyojlari iqtisodiy struktura bilan uyg'unlashishi mumkin. Natijada O'zbekiston iqtisodiyotiga islomiy moliya modelining tatbiq etilishi faqatgina diniy me'yorlarning iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvi bo'libgina qolmay,

iqtisodiy samaradorlikni oshirish, tashqi va ichki investitsiyalar oqimining diversifikatsiyasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga yordam beruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi

Islomiy moliya bo'yicha ilmiy adabiyotlar asosan uchta yo'nalishda shakllangan. Birinchisi islomiy moliyani faqatgina iqtisodiy tizim sifatida talqin qiladi. Bir qator tadqiqotlar bu moliya tizimini foizga asoslangan kreditlardan farqli ravishda real aktivlar va riskni bo'lishishga tayanganligini tavsiflaydi. Pulni tovar va faoliyat bilan bog'lamagan moliyaviy operatsiyalarni rad etuvchi alohida moliyaviy model ekanligini ta'kidlaydi. Huquqiy mexanizmlari murobaha, mushoraka va mudoraba orqali tashkil etilishi haqida tahlillar mavjud bo'lib, ularning fiqhiy va iqtisodiy mazmuni izohlab berilgan.[2,3,4](O.Axmadjonov, I.Umarxo'jayev, Sh.Sotvoldiyev, T.Botirov; Baydaulet E.A.; R.Mukhutdinov, N.Stambakiyev)

Ikkinchi yo'nalish islomiy moliyani global moliyaviy tizimning bir qismi sifatida ko'rib chiqadi. Xalqaro moliya institutlari va bank nazorati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar doirasida islomiy banklarning barqarorligi, kapital yetarliligi va risk taqsimlanishi masalalariga e'tibor qaratiladi. Abbas Mirakhor va Zamir Iqbol kabi olimlar islomiy banklar an'anaviy banklarga nisbatan risklarni qanday boshqarishini tahlil qiladi.[5]

Bunday tizimli xavflarni o'zidan soqit qilish emas, balki bo'lishish taklifi kichik va o'rta bizneslar(KOB) uchun moliyalashtiruvga kirishishni osonlashtiradi. Mintaqa bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarda, masalan, O'zbekiston sharoitida islomiy bank tizimini joriy etish imkoniyatlari, huquqiy baza va KOBlar sektoriga ta'siri tahlil qilingan.(B.B.Ahmadjanov; M.S.Shukrullayeva; D.R.Safayeva)[6] Bu uchinchi yo'nalishdagi tahlil hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar islomiy moliya instrumentlarini iqtisodiy faoliyatning kichik segmentlari, xususan, kichik va o'rta biznes uchun qulay moslashtirish mumkinligini o'rganadi.

Umuman olganda, postsovet davlatlariga oid adabiyotlar miqdor jihatidan kam va fragmentar. Mavjud tadqiqotlar ko'pincha huquqiy moslashuv, alohida pilot loyihalar yoki institutsional to'siqlarni tavsiflash bilan cheklanadi. Nazariy asoslar, global amaliyot va mintaqaviy tajribalar yaxshi tahlil qilingan bo'lsa ham sekulyar moliyaviy model sharoitida islomiy moliyaning amaliy ishlash mexanizmi, xususan, KOBlar uchun risk kimning zimmasida qolishi masalasi kabilar yetarlicha chuqur yoritilmagan.

Metodologiya

Aralash metodologik yondashuvga asoslangan bu maqolada sifat va miqdoriy usullar birgalikda qo'llanilib, har tomonlama tahlil qilinadi. Sifatni tahlil qilishda islomiy moliyaning nazariy asoslari, huquqiy va institutsional to'siqlar mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari hamda markaziy banklar tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar asosida o'rganiladi. Bu islomiy moliyaning amaldagi moliyaviy muhit bilan aynan qaysi jihatlarda mos kelmasligini aniqlashga yordam beradi. Miqdoriy tahlil qismida esa ikkilamchi statistik ma'lumotlardan foydalaniladi. Xususan, postsovet davlatlarida bank sektorining rivojlanish ko'rsatkichlari, KOB subyektlariga

ajratilgan moliyalashtirish hajmi hamda islomiy moliya instrumentlarining ulushi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bunday ma'lumotlarning barchasi markaziy banklar, milliy statistika qo'mitalari va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bazalaridan olinadi. Induksiya usulidan foydalangan holda, tahlil jarayonida davlatlararo solishtirish usuli qo'llaniladi va islomiy moliyaning mavjud yoki joriy etilayotgan shakllari hamda ularning KOBlar faoliyatiga potensial ta'siri baholanadi. Statistik natijalar sifat tahlilidagi xulosalar bilan solishtirilib, ularning o'zaro mosligi aniqlanadi.

Postsovet davlatlaridan biri Qirg'iziston Respublikasida hukumat 2006-yilda "Islom moliya tamoyillarini joriy etish bo'yicha pilot loyiha" to'g'risidagi prezident farmonini imzolagan va shu doirada nisbatan ancha erta faoliyat boshlagan.[7] Shu asosida EcoIslamicBank nomli bank bo'yicha shariatga mos moliyaviy tranzaksiyalar amalga oshirilishi uchun maxsus tartib belgilangan. Tijorat banklari umumiy bank litsenziyasiga ega bo'lgan holda, shariatga mos moliyaviy mahsulotlarni alohida yo'nalish sifatida taklif qilgan. Amaliyotda islomiy moliya faqat foizsiz moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan farqlar orqali ko'zga tashlangan. Ular qatoriga savdo asosidagi moliyalashtirish, ijara mexanizmlari va foyda-zararni bo'lishishga asoslangan bitimlar kiradi. Hozirgi paytga qadar Qirg'iziston Respublikasi bank tizimida islomiy moliya jadal rivojlanyapti. 2025-yilning 31-dekabrigha kelib, mamlakat banklari tomonidan shariat tamoyillariga asoslangan moliyalashtirishlar hajmi 19,2 milliard qirg'iz so'miga yetgan va 2024-yil oxiriga(9 milliard) nisbatan ikki baravardan biroz ko'proq o'sgan. Lekin Qirg'izistonda 22 ta bank va ularning 306 ta filiallari mavjud. Ulardan atiga 6 tasi milliy va xorijiy valyutada islom tamoyillari asosida xizmat ko'rsatgan. 2026-yilning boshidayoq bank sektorining jami aktivlari 1 trillion 211,3 milliard qirg'iz so'mini tashkil qilishiga qaramay, islomiy moliya aktivlari taxminan 1,59 foiz ulushga ega xolos.[8]

Tojikiston Respublikasiga keladigan bo'lsak, islomiy moliya bo'yicha institutsional mexanizmning shakllanishi 2014-yilda jiddiy sur'atga kirgan. Aynan shu yili mamlakatda "Islomiy bank to'g'risidagi qonun" kuchga kirgan. Bu huquqiy baza orqali mamlakatda shariatga mos moliyaviy faoliyatni tartibga soluvchi asos yaratildi, shuningdek, tijorat banklari uchun islomiy moliya instrumentlarini joriy etish uchun imkoniyatlar kengaydi. Shariat tamoyillariga to'liq amal qiluvchi birinchi islomiy bank - OJSC Tavhid bank 2019-yilda asos solingan(ilgari Sohibkorbank nomi bilan faoliyat yuritgan).[9] Bu bank davlatda to'liq shariatga mos ishlaydigan moliyaviy institut sifatida litsenziyaga ega bo'lib, o'z faoliyatini Dushanbe va mintaqaviy filiallar orqali olib boradi.[10] So'nggi yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Tojikiston bank tizimi ichida islomiy moliya hissasi hali kichik bo'lsada, sektor sekinlik bilan o'sib bormoqda. 2025-yil oxiriga ko'ra, islom moliyasi aktivlari mamlakat bank aktivlarining taxminan 1,1 foizini tashkil qilgan va hozir ham bu raqam 1-2% foiz orasida o'zgarishsiz qolgan. 65 ta moliya-kredit tashkilotlari ichida bir dona islom banki uncha katta ulushga ega bo'lmasligi ham tabiiy.[11]

Qozog'iston. Islomiy moliya institutlarini shakllantirish 2009-yilda boshlangan. Aynan shu yili mamlakat qonunchiligidagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun"ga

islomiy banklar va shariatga mos moliyaviy xizmatlarni rasmiy tan olish imkonini beruvchi o'zgartirishlar kiritildi, bu orqali islomiy moliyaning huquqiy asoslari yaratildi.[12] Shu asosda Qozog'iston tijorat banklari ichida islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan institutlar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda mamlakatda faoliyat yuritayotgan eng mashhur islomiy moliya institutlari qatoriga Abu Dhabi Commercial Bank(2024-yilgi rebrendingdan oldin Al Hilal deb nomlangan edi) va Zaman Bank kiradi. Ularning birgalikdagi aktivlari so'nggi yillarda sezilarli o'sishga erishgan bo'lsada, Qozog'iston bank sektorining umumiy tuzilmasiga qaraganda islomiy moliya juda kichik ulushni egallaydi. 2020-yil yakuniga ko'ra ADCB va Zaman banklarining birgalikdagi aktivlari 81,9 milliard tengeni tashkil etib, davlat bank sektorining umumiy aktivlari qiyosida atiga 0,26% atrofida edi.[13] Bu holat global miqyosda islomiy bank sektorining umumiy ko'rsatkichlariga nisbatan ancha past.

Ozarbayjonda esa islomiy moliyani rivojlantirish borasida endi tizimli va bosqichma-bosqich strategiyalar qo'llanilmoqda. 2026-yilda Fuqarolik va Soliq kodekslari hamda banklar to'g'risidagi qonunlarga o'zgartirishlar kiritish rejalashtirilgan. Shu yilning 2-fevral sanasidan "Rabitabank" mudoraba modelidagi investitsion mahsulotlarni taklif qila boshlagan. International Bank of Azerbaijan (IBA) esa murobaha asosida moliyalashtirishni joriy etmoqda. Bu davlatda hozir hech qanday to'liq islomiy bank mavjud emas. Banklar "muqobil oyna" (alternative window) orqali istisna, murobaha, ijara, mudoraba, wadi'a(depozitga o'xshash) xizmatlarni taqdim etadi. Nobank tashkilotlari esa faqat istisna, murobaha va ijara bilan cheklanadi. Undan tashqari, Islom Taraqqiyot Banki ko'magi bilan sukuk chqarish uchun huquqiy asos yaratilmoqda. Bu esa infratuzilma (energetika, transport) loyihalarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda.[14]

O'zbekiston Respublikasida islomiy moliyani joriy etish va rivojlantirish davlat siyosati darajasida muhokama qilinmoqda. 2024-yil dekabr oyida Markaziy Bank IFSB (Islamic Financial Services Board) ga a'zo bo'lib, bu sohani tartibga solish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish yo'lida muhim bosqich bo'ldi.[15] Xalqaro tajribani o'rganish va malakali kadrlar tayyorlash maqsadida 2025-yil iyul oyida Markaziy Bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa idoralar vakillaridan iborat delegatsiya Malayziyaga o'quv safari uyushtirdi.[16] Shu yil sentyabr oyida esa Toshkentda XX Xalqaro islomiy moliya olimlari va mutaxassislari ishtirok etib, O'zbekiston uchun eng maqbul islomiy bank modellari, shariat boshqaruvi va huquqiy masalalar muhokama qilindi.[17] 2026-yilga kelib, ayrim tijorat banklari tomonidan shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy mahsulotlarni taklif etish jarayoni boshlangan. Ular qatoriga murobaha, ijara, mudoraba, mushorakaga asoslangan bitimlar kiradi.

Tahlil davomida aniqlangan asosiy institutsional to'siqlarni uch darajaga ajratish mumkin:

1) makro darajada (davlat siyosati): qonunchilikdagi ziddiyatlar, huquqiy noaniqlik, davlat idoralarida islom iqtisodiyoti bo'yicha tushuncha yo'qligi; regulyativ muhitning moslashmasligi;

2) mezo darajada (institutsional infratuzilma): malakali kadrlarning yetishmasligi, soliqlarda murakkabliklar, sertifiatsiyalash tizimining rivojlanmaganligi, islom moliyasi mahsulotlarini taklif qiluvchi banklar kamligi;

3) mikro darajada (individual): aholining islom iqtisodiyoti haqida bilimining kamligi, sovet davridan qolgan tafakkur sabab islom moliyasi mahsulotlariga ishonchsizlik bilan qarash, terminologiya muammosi va mahsulotlar an'anaviy banklarnikiga qaraganda qimmatligi.

Shular tufayli islomiy moliyaning moslashuvi va bozordagi ulushi oshishida to'siqlar kelib chiqmoqda.[18] Shunda ham bu to'siqlar turli davlatlarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, Qozog'istonda makro darajadagi to'siqlar nisbatan kam, lekin mezo va mikro darajadagi muammolar jiddiy. Qirg'izistonda esa teskarisi.

2024-yilda Markaziy Osiyo davlatlaridagi islomiy moliya aktivlari umumiy qiymati taxminan 699 million AQSH dollarini tashkil etgan. Bu raqam global islomiy moliya bozoriga nisbatan juda kichik ulushni bildiradi, chunki dunyo bo'yicha islomiy moliya ulushi 4 trillion AQSH dollaridan oshadi. Shuning o'zi postsovet mintaqasida islomiy moliyaning hozircha kichik segmentda qolayotganini yaqqol isboti. Shuningdek, regionda jami 18 ta islomiy bank va 14 ta nodavlat moliyaviy institutlar mavjud bo'lib, ayrim an'anaviy banklar ichida islomiy moliya xizmatlarini taklif qiluvchi darchalar ham faoliyat yuritmoqda.[18]

Markaziy Osiyo davlatlarining yalpi ichki mahsuloti bo'yicha statistik ko'rsatkichlar 2024-yilda taxminan 519 milliard AQSH dollariga yetgan.[18] Bu raqam iqtisodiy salohiyatni tasdiqlaydi, biroq yuqorida qayd etilgan islomiy moliya aktivlarining kichik hajmi mintaqada bu yo'nalishdan hali to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

Tahlil ma'lumotlariga ko'ra, islomiy moliyaning joriy holati cheklangan bo'lishiga qaramay, uning o'sish salohiyati katta. Xususan, prognozlarga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlarida islomiy bank aktivlari 2028-yilda 2,5 milliard AQSH dollariga, 2033-yilda esa 6,3 mlrd AQSH dollariga yetishi kutilmoqda.[18] Bu o'sish istiqbollari mintaqada islomiy moliyaviy instrumentlarga bo'lgan talab va ehtiyoj ortib borayotganidan darak beradi. Postsovet mamlakatlarida bank kreditlarining katta qismi yirik korxonalar va davlat sektori uchun ajratiladi. Kichik va o'rta biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar umumiy kredit portfelining nisbatan past foizini tashkil etadi. Bu esa KOBlar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatadi. Masalan, 2024-yilgi ma'lumotga ko'ra O'zbekistonda KOBlar uchun ajratilgan kreditlar umumiy kredit portfelining 19 foizini tashkil qiladi.[19] Bunday kichkina hajmdagi ulush postsovet hududidagi KOBlar uchun moliyalashtirish bo'yicha bo'shliqni yanada ochiq ko'rsatadi.

Normativ va regulyativ tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo va boshqa postsovet davlatlarida islomiy moliya tamoyillarini tartibga soluvchi qonunlar va

standartlar ma'lum darajada shakllanib, hali ijroga kiritilmagan. Ko'pgina mamlakatlarda maxsus islomiy bank qonuni yo'q yoki mavjud bo'lsa ham amaliyot darajasida chuqur tatbiq etilmaydi.

Yuqorida sanab o'tilganlarni amalda tatbiq qilish uchun esa birinchi navbatda soha mutaxassislari yetishmasligidek ulkan to'siqni olib tashlash kerak. Chunki inson kapitalining yetishmasligi jarayonni faqat ortga suradi. Islomiy moliya bo'yicha sertifikatlash dasturlarini amalga oshirish, oliy ta'lim dargohlarida alohida yo'nalish ochish ham zamonaviy moliya ham fiqh al-muamalat bo'yicha gibrad kadrlarni tayyorlash uchun yaxshi yechim bo'la oladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi islomiy moliya tamoyillarining amaldagi sekulyar moliyaviy muhit bilan moslik darajasini hamda ushbu moslik uchun kichik va o'rta biznes subyektlari uchun qanday imkoniyat va cheklovlar yaratishini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot natijalari postsovet davlatlarida islomiy moliyani joriy etish masalasi ko'pincha diniy yoki mafkuraviy muammo sifatida talqin qilinishi noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. Chunki islomiy moliya e'iqodidan qat'iy nazar barchaga ochiq. Olingan statistik va institutsional ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, asosiy muammo islomiy moliyaning mohiyatida emas, balki uning amaldagi sekulyar moliyaviy tizim bilan institutsional moslashuvida namoyon bo'lmoqda. Markaziy Osiyo va kengroq postsovet hududida islomiy moliyaning hozirgi ulushi juda cheklangan va deyarli foydalanilmayotgan moliyaviy resurs hisoblanadi. Muammo talab yetishmasligida emas, balki taklifni shakllantiruvchi institutsional mexanizmlarning yo'qligida. KOBlar bilan bog'liq statistik natijalar ham ushbu xulosani kuchaytirishga isbot bo'la oladi. O'zbekiston va boshqa postsovet davlatlarida bank tizimi asosan yirik korxonalar va davlat ishtirokidagi loyihalarga yo'naltirilgan. Bu holat OECD(Organisation for Economic Cooperation and Development) va Jahon banki tomonidan qayd etilgan "SME financing gap" muammosi bilan mos keladi, biroq postsovet kontekstida ushbu muammo yanada keskinroq tus olgan.[20] Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya instrumentlari aynan shu bo'shliqni to'ldirish salohiyatiga ega bo'lsa ham, amaldagi huquqiy va prudensial ya'ni xavflarni oldini oluvchi tizim bunga tayyor emas. Odatda islomiy banklar o'z faoliyatini 2 shakldagi bank tizimida amalga oshiradi: a) islom fiqhi me'yorlariga butkul muvofiq tizim(Pokiston, Sudan, Eron bank tizimlari); b) davlat organi tomonidan alohida tartibga solinadigan va islomiy banklar faoliyati an'anaviy banklar bilan bir qatorda faoliyat yuritadigan dualistik tizim. To'laqonli islomiy banklar uchun bank faoliyatini shariat qoidalariga muvofiqligini tartibga solish markaziy bank va bank nazorati organlari darajasida amalga oshirilishi kerak. Buning uchun kadrlar masalasi juda ahamiyatli. Sifat tahlili bo'yicha, an'anaviy banklar faoliyati foyda olishga qaratilgan bo'lsa, islomiy banklar faoliyati xususiyatlariga ichki audit vazifasi, xatar-menejmenti, likvidlikni boshqarish, bank faoliyatining omonatchilar boxabarligi uchun butkul ochiqligi kabilar ham kiradi. Aynan shuning uchun ham 2008-yildagi jahon moliyaviy inqirozida eng kam

talafot ko‘rgan va chidamli bo‘lgan moliya tizimi sifatida uning eng afzal tomoni inqiroz davrlarida zararning bo‘linishi, faqat mijozlar bo‘yniga ilib qo‘yilmasligidadir. Shu bilan birga, prognoz ko‘rsatkichlari tadqiqot natijalariga strategik nuqtai nazardan ijobiy baho berish imkonini berdi. Islomiy moliya aktivlarining kelajakda bir necha barobar oshishi kutilayotgani, agar institutsional islohotlar amalga oshirilsa, postsovet hududida muqobil moliyalashtirish manbai sifatida real rol o‘ynashi mumkinligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Milliy tiklanish partiyasi (2025). 68 foiz aholi an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanishni xohlamaydi. <https://mt.uz/yangiliklar/860>
2. Axmadjonov, O., Umarxo‘jayev, I., Sotvoldiyev, Sh., & Botirov, T. (2022). Islomiy moliya va O‘zbekiston moliya tizimida uni qo‘llash. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5/2), 218-228. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/26_Axmadjonov_Oybek_218-228.pdf
3. Baydaulet, E. A. (2019). Islomiy moliya asoslari. O‘zbekiston NMIU.
4. Mukhitdinov, R., & Stambakiyev, N. (2003). Исламдық қаржы өнімдерінің діни негіздері: мудараба, мушрака және мурабаха. *Eurasian Journal of Religious Studies*, 34(2), 74-82. <https://doi.org/10.26577/EJRS.2023.v34.i2.r8>
5. Iqbal, Zamir and Abbas Mirakhor, (2014). Financial Inclusion: Islamic Finance Perspective. MPRA paper No. 55977. <https://mpra.ub.uni-muenchen.de/55977/>
6. Axmadjanov, B. B., Shukrullayeva, M. S., & Safayeva, D. R. (2025). Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике Узбекистана. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*, 3(6), 906-910. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15766105>
7. National Bank of the Kyrgyz Republic. (2022, June 6). Regulation for implementing the principles of islamic banking and finance in Kyrgyz Republic within the pilot project. <https://www.nbkr.kg/contout.jsp?item=103&lang=ENG&material=108636>
8. National Bank of the Kyrgyz Republic. (2026, March 16). Development trends of the banking sector (as of January 31, 2026). <https://www.nbkr.kg/index1.jsp?item=80&lang=ENG>
9. National Bank of Tajikistan. (2019, September 19). National Bank of Tajikistan has issued a license to the first Islamic bank in Tajikistan - OJSC Tavhidbank. https://nbt.tj/en/old_news/?ELEMENT_ID=488630
10. National Bank of Tajikistan. (n.d.). List of banks in Tajikistan. https://www.nbt.tj/en/banking_system/banks.php
11. National Bank of Tajikistan. (2025). Review of the banking system of the Republic of Tajikistan as of December 31, 2025. https://nbt.tj/upload/iblock/af4/x25fkmh11d0eyrsdfuz7yvvdz92yosc7u/eng_%D0%9D%D0%B8%D0%B7%D0%BE%D0%BC%D0%B8%20%D0%B1%D0%BE%D0%BD%D0

[%BA%D0%B8_2025.06%20\(%D0%B4%D0%B0%D0%B2%D1%80%D0%B0%20%D0%B1%D0%B0%20%D0%B4%D0%B0%D0%B2%D1%80%D0%B0\).pdf](#)

12. Kazakhstan. (2009). Закон Республики Казахстан от 12 февраля 2009 года No.133-IV. <https://constitutions.ru/?p=24030>

13. Finpromkz. (2021, January 18). Исламские банки становятся более востребованными: ссудный портфель вырос на 47% за год - до 40 миллиардов тенге. <https://finprom.kz/ru/article/islamskie-banki-stanovyatsya-bolee-vostrebovannymi-ssudnyj-portfel-vyros-na-47-za-god-do-40-milliardov-tenge>

14. Al Huda Financial. (2026, February 20). Azerbaijan to introduce islamic banking products in 2026. <https://alhudafinancial.com/blog/azerbaijan-to-introduce-islamic-banking-products-in-2026/>

15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Islomiy moliyaviy xizmatlar Kengashiga a‘zo bo‘ldi. https://cbu.uz/uz/press_center/news/2056227/

16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Islom moliyasi, tartibga solish va ekotizimni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan O‘zbekiston delegatsiyasining o‘quv safari boshlandi. https://cbu.uz/uz/press_center/news/2600160/

17. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). XX Xalqaro islomiy moliya olimlari forumi (ISSF 2025). https://cbu.uz/uz/press_center/news/2835882/

18. Eurasian Development Bank, Islamic Development Bank Institute, & London Stock Exchange Group. (2025, May 20). The Future of Islamic Finance in Central Asia. EU-Africa Chamber of Commerce. <https://eabr.org/en/analytics/special-reports/the-future-of-islamic-finance-in-central-asia/>

19. International Finance Corporation. (2025, June 19). IFC supports smaller businesses and women entrepreneurs in Uzbekistan. <https://www.ifc.org/en/pressroom/2025/ifc-supports-smaller-businesses-and-women-entrepreneurs-in-uzbekistan>

20. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2022, March 29). Financing SMEs and Entrepreneurs 2022. OECD. https://www.oecd.org/en/publications/financing-smes-and-entrepreneurs-2022_e9073a0f-en/full-report/component-9.html

21. Азимова Н. МАДАНИЯТЛАР ҚИЁСИ ВА УНИНГ ТАРЖИМАДА АКС ЭТТИРИЛИШИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1-2. – С. 279-282.

22. Azimova N. S. The Emergence Of The Stylistics Of The Arabic Language //Current Research Journal of Philological Sciences. – 2024. – Т. 5. – №. 8. – С. 22-25.

23. Abdunabiev S. B. Terminology in Arabic linguistics //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 285-290.